

Shoira Nodira

Nodira XIX asrning birinchi yarmida Qo'qonda yashagan va ijod etgan talantli shoiralardandir. Nodira she'rlari o'zining yuksak badiiyligi va chuqur mazmundorligi bilan ajralib turadi.

Nodira taxminan XVIII asrning oxirgi choragida Andijon shaharida tug'ildi. Uning otasi Rahmonqul qushbegi Qo'qon hukmroni Norbo'tabiyning yaqinlaridan bo'lib, asli o'zbeklarning Ming urug'idandir.

Nodiraning nomi Komila bo'lib, Nodira uning adabiy taxallusidir. Komila o'zining go'zalligi, aql, odobi bilan mashhur bo'lgan edi. Shuning uchun ham keyincha Qo'qon xoni bo'lgan Umarxon (1811 - 1822 yillarda hukmronlik qilgan) unga g'oyibona oshiq bo'lib, 1808 yili Nodiraga uylanadi va uni Qo'qonga olib keladi. Nodiraning ijodiy mahorati Qo'qondagi adabiy guruhlar ichida va ularning ta'siri ostida takomil topdi. Nodira g'azallarining asosiy mazmuni insonparvarlik, muhabbat va sadoqatni ulug'lashdir. Nodira har doim insonparvarlik g'oyalarini; adolat, insof, xalq manfaatlarini ko'zlashni targ'ib qilardi. U xonga qarata bunday deb yozadi:

Bo'ylakim mumtoz erursen barcha sultonlar aro,
Shod qilg'il bandalarning ko'nglini ehson etib...
Fuqaro holig'a gar boqmasa har shoh, anga
Hashmatu saltantu raf'atu shon barcha abas.
Shoh o'ldirki rayyatga tarahhum qilsa,
Yo'q esa qoidai amnu omon barcha abas.

Shoira inson qadri qiymatini yuqori qo'ydi, uning ruhan boy va mazmundor bo'lishini kuyladi. Bu esa uning muhabbat tuyg'ularini chuqur seza olishi bilan bog'liq edi. Shuning uchun ham u insoniylik va muhabbatning mavjudligina insoning haqiqiy inson ekaniga dalolat berishini qayta-qayta takrorlaydi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsen muhabbat ixtiyor et.
Nodira, jomi muhabbatni labo-lab ichibon,
Mastlik birla qilay ishq namozini ado.
Jahonda, Nodira, ishq ixtiyor et
Muhabbatsiz kechurg'on hayf avqot.

Nodira kuylagan muhabbat insonlar o'rtasidagi qalbning qalbga intilishi natijasida paydo bo'lgan sof, samimiy muhabbatdir. Olijanob insoniy tuyg'u bo'lmish bunday sevgining eng oliy xususiyati - vafodorlikni shoira ayniqsa baland ilhom bilan tarannum etadi.

Nodira ko'yida bosh qo'ymog'im ermas noyob
Itlari hayli erur maqsadi ikrom menga.
Bo'lsa to umru hayoti boqi,
Meni ilkimduru domoni vafo.

Qo'qon xonligining siyosiy va ma'muriy hayotida ham Nodira faol ishtirok etardi. Bu faoliyat Umarxon vafot etib, o'rniga Nodiraning o'g'li Muhammad Alixon hokimiyat tepasiga chiqqach (1822 - 1842), ayniqsa ortdi. Xalq o'rtasida Nodirani hurmat qilib Mohlar oyim deb atar edilar. Qo'qonda uning tashabbusi bilan bir madrasa bino qildirilgan bo'lib, uni madrasai Mohlar oyim deyilar edi. Bu yerda shaharning ko'p yoshlari ta'lim olgandir. Jumladan keyinchalik atoqli o'zbek shoiri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham shu yerda o'qidi.

1842 yili Qo'qon xonligi bilan Buxoro o'rtasida urush boshlanib, Qo'qon xoni Muhammad Alixonning mag'lubiyati bilan tamom bo'ldi. Buxoro amiri Nasrullo o'z qo'shini bilan shaharga bostirib kirib, qonli terror o'tkazdi. Xalq molu mulki talon qilindi. Amir Nasrullining buyrug'i bilan Muhammad Alixon, uning ukasi va yosh o'g'li dorga osib o'ldirildi. Shu paytda Nodira o'zining kichik yoshli nabirasini himoya qilib amirga qarab: "otasini-ku o'ldirding, bu ma'sum go'dakda nima gunoh, nega bu bolani o'ldirmoqdasan, zolim", deb xitob qilib, uni saqlab qolishga intiladi va amirning zulmiga la'natlar o'qiydi. Shunda Nasrulloning buyrug'i bilan jallodlar Nodirani ham tutib dorga osadilar. Shunday qilib, xalqning talantli qizi - atoqli shoira Nodira fojiona ravishda halok bo'ladi.

Nodiraning o'zbek va tojik tillarida yozilgan she'rlaridan tashkil topgan to'la bo'lmagan devoni bizgacha yetib kelgan. U hozir UzSSR Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Nodiraning olijanob insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi go'zal she'rlari uzoq yillardan beri xalq tomonidan sevib o'qilmoqda va kuylanib kelmoqda. Shuning o'zi ham jabrdiyda shoira xotirasi qanchalik aziz ekanini namoyish etib turadi.

Aziz Qayumov
G'azallar
Vasl o'yin obod qildim, buzdi hijron oqibat
Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat
Qildi choki pirahan dog'i dilimni oshkor,
Qolmadi ko'nglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.
Ahdu paymonlar qilib erdi, vafo qilg'um deboi,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yalg'on oqibat.
Orzu qildim tutarmen deb visoli domanin,

Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat.
Zohido, ishq muhabbat ahlini ma'zur tut,
Yor ko'yida na bo'ldi shayx San'on oqibat.
Baski qon bo'ldi yurogim gavhari ashk o'rnig'a,
Qatra-qatra ko'zlarimdin tomda marjon oqibat.
Ohkim bo'ldi yana subhi nashotim shomi g'am,
Chehra pinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.
Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,
Poymoli xayli mo'r o'ldi Sulaymon oqibat.
Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,
Navbahor o'tti, xazon o'ldi guliston oqibat.
* * *

Farhod agar ursa menga lofi muhabbat,
Bir oh ila aylarman uni dog'i xijolat.
Harchandki bemori g'ami ishq edi Majnun,
Dardimni ko'rib tishladi angishti nadomat.
Farhodda bo'lsaydi mening g'ayrati ishqim,
Bir oh ila aylar edi ul tog'ni g'orat.
Majnunda agar bo'lsa edi sabru tahammul,
Qilmasmu edi men kabi shahr ichra iqomat.
Gar bo'lsa Zulayxoda mening zarracha ishqim,
Qolmas edi Yusufni firoqida salomat.
Ishq ofatiga tog' tahammul qila olmas,
Man manki qilurman bu g'amu dardig'a toqat.
Dardu alamu g'ussaki hajrida chekarman
Bu mehnatu g'am kimdadur, ey ahli muhabbat.
Yuzdin biri Majnunda agar bo'lsa g'amimni,
Bir oh ila olamg'a solur sho'ri qiyomat.
Har holda, ey Nodira, shukr ayla xudog'a,
Kim berdi senga ishq muhabbat ila davlat.
* * *

Bahor keldi ko'zim gulga boqmadi aslo,
Nadinki, gulshan aro gulruxim emas paydo.
Yuzimga bo'ldi yuzing muqtarin, bihamdilloh,
Ochildi mehru vafo bog'ida guli ra'no.
Sarig' yuzimda qizil ashkimi tarovati bor,
Nuchukki, sog'ari zarrin aro mayi humro.
Labidin ayru menga boda tutma, ey soqiy,
Xumor kulfatig'a moni' o'lmadi sahbo.
Bu joni xastaki, vaslingni orzu aylar,
Xayol turrasidin boshida uzun savdo.
Firoq lashkari tug'yonidin maozalloh,
Ki qildi sabru tahammul diyorini yag'mo.
Yuzing nazorasi ushshoqlarni firdavsi,
Harimi dargohing ahboba jannat-ul-ma'no.
Sening salosili zulfingga mubtalodurman,
Ki bo'ldi ahli xirad qushlarig'a domi balo.
Falakdin o'tdi fig'onim, quyoshga yetdi unim,
Hanuz, Nodira, kam bo'lmadi bu ohu navo.
* * *

Ey sarvi sihi bo'ylug'im, ey qomati zebo,
Kelkim, ko'zim oynasi mushtoqi tamosho.
Ul kunki, visoling chamanin sayr etar erdim,
Manzuri nazar erdi menga ul qadi bolo.
Aydimki, qachon bo'lg'usi kuyingda makonim,
Oshiqqa, dedi, hojat emas manzilu ma'vo.
Kuydurdi chaman gullarini rashk o'ti birla
Ul g'unchai xandon ila ul nargisi shahlo.
Ul zulfi dil oviz muanbar girihidin
Har kimni tushib boshig'a bir o'zgacha savdo.
Har sabzai sunbulki, bu gulshanda chekar bosh
Muyi sari Majnunduru, yo turrai Laylo.
Vayronada oqilg'a iqomat na munosib
Sarmanzili osoyish emas arsai dunyo.
Hijron g'amidin tashna labu, hasta jigarmen,
Soqiy, karam aylab menga tut sog'ari sahbo.
Ko'zgu kabi hayronlaringga arzu xayol et,
Diydoring uchun Nodiradur volai shaydo.

* * *

Ey mehri jamoling olam oro,
Zarroti yuzingga mastu shaydo.
Ey husni riyozida qading sarv,
Ul sarv uza sunbuling sumanso.
Kelkim nazaring'a, ey pari-ro',
Devonag'a bir dam et tamosho.
Sen uyquda masti nozdursen,
Men dard bila g'aribu tanho.
Tun kecha fig'onu nolishimdin
Ko'ying iti ichra tushdi g'avg'o.
Sen qaysi diyor azmin etding,
Kelmas xabaring bu yerga aslo.
Ohim o'qig'a qadim kamondur
Bu o'qni, nishonidur surayyo.
Majnun nega Layli tarkin etsun,
Yusufni unutmadi Zulayxo.
Qaydin seni Nodira unutsin,
Bu so'z ne munosib, ey dilor.

* * *

Ey yuzing qiblai arbobi safo,
Sari ko'yingda ko'ngul qiblanumo.
Ka'bai ko'ying erur tak'yagahim,
Ko'z yoshim zam-zam o'shal ka'ba aro.
Bo'lmasa mehr ko'ngulda ne osig',
Manziling Yasrib o'la, yo Batho.
Surma oso qadaming tufrog'i
Xira bo'lg'ay ko'zima berdi ziyo.
To'tiyodur menga naqshi qadaming
Ki ko'zim oyinasi topti jilo.
Bo'lsa to umr hayoti boqiy,
Meni ilkimduru domoni vafo.
Do'stlar ayshu farog'at ila xush,
Bo'ldi dushman hadafi tiyri balo.
Har kim o'z rutbasidin lof urar,
Bu marotibda maqoming a'lo.
Domani yor ilikdin ketdi.
Nodira, pirahanim bo'ldi qabo.

* * *

Marhabo, ey payki sulton marhabo,
Hudhudi mulki Sulaymon, marxabo.
Tal'ating farrux, muborak maqdaming
Qildi kulbamni guliston, marhabo.
Xo'b kelding, yaxshi keltirding xabar,
Aylading dardimga darmon, marhabo.
Bo'ldi mavzun qomatingdin munfail
Sarv nozi bog'i rizvon, marhabo.
Qilg'asen ul moh mehrin oshkor,
Subh yanglig' pok domon, marhabo.
Mujda keltirding visoli yordin,
Topti taskin dardi hijron, marhabo.
Kel beri, to xoki poyingni qilay,
To'tiyoi chashmi giryon, marhabo.
Ravshan aylarman chirog'i ohin,
Ko'zlarimdur gavhar afshon, marhabo.
Bu kecha hijron shabistonidadur
Anjumi ashkim charog'on, marhabo.
Qo'y kafi pokingni diydami ustina
Bir dam, ey sarvi xiromon, marhabo.
Nodira, har so'zki insho ayladim,
Aydi anga ahli davron, marhabo.

* * *

Ey xusho, shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim oning har kishi aytsa bo'lur Xizrnamo.
Hukamo ishq marizig'a buyurmush mayi pob,
Hajr dardig'a demishlar bu mufarrihni davo.
Bodadin aylama parhez, damo-dam qadah ich,
Keldi mazmumi muhabbat yo'lida zuhdu riyo.

Bo'ldi gul mavsimiyu maykadalar jonibidin,
Mujdai ayshu-tarab yetkizadur bodi sabo.
Ey xush ul rind may oshomi siyah mast mudom,
Joma may ilgida, olida sabuvu meyno.
G'ussa paymonasida xuii dil oshom aylar
Bodadin har kishikim, aylar esa istig'no.
Zohido, gar desang ishq ahliga rasvo bo'lmay,
Demog'il maykada avboshig'a ko'p chunu charo.
Boda mushtoqiga lutf ayla, qadah tut, soqiy,
Yo'qsa Jamshidg'a ham aylamadi jom vafo.
Nodira, jomi muhabbatni labo-lab ichibon
Mastliq birla, qiday ishq namozini ado.

* * *

Yuzing oftobi mohi olam oro
Jamoling ko'zgusi mehri mujallo.
Labing yodi ko'nlimda pinhon emastur,
Erur shishada maaji sahbo huvaydo.
Erur ikki ajdar xamu pech birlan
Qading sarvida iki zulfi sumanso.
Magar husn bog'ini nargislaridur
Iki chashmi jodui bodom-u shahlo.

* * *

Nazar ahli savdolaridin xating qildi lavhi jamola paydo,
Netong aylasa dudi ohim qamar davrida hola paydo.
Soching sunbulidin girihlar tushubdur ko'ngul rishtasig'a,
Ki yuzdin birin zohir etsam qilur ja'd mushkin kulola paydo.
Mening qissai ro'zg'orim farovon g'ami hijroning afsonasidek,
Ki bir nuktasin sharh qilsam bo'lur necha daftar risola paydo.
Yuzing oyini hayratidin erur badri tobon qaro dog'liq,
Qoshing nunidin voqif erdi ki ojizlig' o'ldi hilola paydo.
Karam dastgohi ki xon atosi mudom omoda mehmon yuziga
Aning rezai bazm baxshoyishidin bo'lur har gadog'a navola paydo.
Sirishkim sahobini imdodidin dilkushodur muhabbatni dashti,
Ko'ngul dog'ini aytsam biyobon bo'lur, ul biyobonda lola paydo.
Solib hijratni mulkina zilzila, dedi qilma davri falakdin gila
Nadur chorai dardim, ey Nodira, firoq o'ldi nogoh, visola paydo.

* * *

Kel, senga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido,
Diydalarimga qo'y qadam, har qadamingga jon fido.
La'li labing firoqida xuni jigari g'izo menga,
Sarv qading havosida jon etaram ravon fido.
Ayshu nishoti ofiyat dardi g'amingni sadqasi,
Bir nafas ishtiyoqinga ishrati jovidon fido.
Vaqti xirom, ey sanam, diydalarimga qo'y qadam,
Xoki rahingga aylaram chashmi guharfishon fido.
Garchi mening alimdadur hosili mulki mamlakat,
Etsa visoling aylaram barchai royigon fido.
Yig'lama endi, ey ko'zim, to'kma yurakni qonini,
Dog'ni toza ayladim, qonig'a bo'ldi qon fido.
Nodirai g'azal saro nazmini ko'rsa nogahon
Durri javohirin qilur fikrig'a bag'ri kon fido.

* * *

G'unchadek og'zi aro ul lutfi guftori ajab,
Sun'i ilgi yo'qdin izhor aylagay bori ajab.
Oldi ko'ngul qushlarni har lahza mushkin turrasi,
Bola shohindurki, sayd aylarda tarrori ajab.
Baski majnundir aning husnig'a gulshan gullari,
G'unchalardindur chaman bo'ynida tumori ajab.
Ayladi oshufta tab'imni parishon turrasi,
Qildi baxtimni qaro xoli sitamkori ajab.
Ko'zidin ozurdameiu, qoshidan ozurdaroq,
Zor ahvolimg'a ozor uzra ozori ajab.
Har qachon kim noz etib chiqsa mayi gulfom ichib,
Qon to'kar maydek damo-dam chashmi xummori ajab.
Yor vasli birla odat aylab erdim, Nodira,
Andin ayru menga bir dam sabr izhori ajab.

* * *

Tiyradur subhi nashotim, soqiyo, keltir sharob,

Shomi hijron zulmatida jomi maydur oftob.
Mohi tobon yuzligim, har lahza yod etsam seni,
Dudi bag'rimdin chiqar o't ichra tushgandek kabob.
Band etib zulfing aro ko'nglimni ozod etganing
Qush uchurgandek erur bog'lab ayog'iga tanob.
Koshki ohim nasimidin taharruk aylasa,
Yorkim ruxsorig'a gul bargidin solmish niqob.
Hajr oshubi balodurkim, ani tashvishidin
Qatrai simob yanglig' ko'nglim aylar iztirob.
Shod edi ul shohi davron vasli birla xotirim,
Aysh davronig'a soldn davri gardun inqilob.
Bevafolardek seni hargiz faromush aylamas,
Nodira, yodingni aylar to dami yovmulhisob.
* * *

Gulga desam yo'q kafi poyingga tob,
Diydama qo'y, ey, buti zarrin, rikob.
Tashqari chiqma kechalar hashr o'lur,
Chiqsa yarim kechada gar oftob.
G'arqai xuni jigar o'ldi tanim,
Qon yosh ila muyi sar etdim huzob.
Turfa savoli labidin so'rdi yod,
Jon berayin bo'lmasa shirin javob.
Surati devor kabi bo'lmisham,
Hasrati diydor ila bexo'rdu-xob.
Jonima qasd aylar esang qil, valek
Tishlama la'lingni, qilursan itob.
Moyili zulm etma ko'zing tarkini,
Yo'qsa qilur mardum uyini xarob.
Bu kecha mayxonani dargohida
Piri mug'ondin tilaram fathi bob.
Aylamading, ey buti paymon shikan,
Nodirani vasling ila komyob.
* * *

G'azab birla nigorim o'tdi yonimdin shitob aylab,
Yuzin ko'rguncha o'ldurdi meni hajri azob aylab.
Pari yanglig' nazardin chehra pinhon etdi ul mahvash,
Firoqu hajr jomidin meni mastu-xarob aylab.
Ko'ngul shodob erdi jur'ai jomi visolidin,
Solib hijron o'tig'a ketti bag'rimni kabob aylab.
Muruvvat ayla, jono, sendin ayru tiyradir ayshim,
Prut kulbamni bir tun orazingni oftob aylab.
Icharmen may damo-dam yor la'lini xumoridin,
Meni mayxonadin man' etma zohid ihtisob aylab.
Hnsob etmoqqa charx anjumlarin bor ehtimol anda,
Mening dog'i dilimni lek bo'lmaydur hisob aylab.
Labidin ayru qon yutmoq ishimdur borg'il, ey soqiy,
Menga behuda kulfat berma taklifi sharob aylab.
Darig'o, ketti oxir gavhari maqsud ilgimdin,
Topib erdim seni mahbublardii intixob aylab.
Vafo sarlavhi uzra Nodira mavzun kalomini
Yo'zar tahsini she'ri xisravi oliy janob aylab.
* * *

Yor la'lin yod etarmen g'unchai xandon ko'rib,
Sabzai xat sog'inurmen bog' aro rayhon ko'rib.
Sabzai xat la'l nobing uzra ma'vo ayladi,
Xizr qilg'ondek vatan sarchashmai hayvon ko'rib.
Dardi jongohu damo-dam, oh, ahvolim taboh,
Rahmi kelmasmu menga bu hol ila sulton ko'rib.
Sovrulurman hajr vodisi aro Majnun kibi,
Girdubod aylar gumon dasht uzra sargardon ko'rib.
Qecha la'li hajridin o'lmoq menga dushvor edi,
Yuz tahayyur birla ilgin tishladi jonon ko'rib.
Rashkdin yuz fitna barpo ayladi davri falak
Ko'zlarim oyinasin yor oldida hayron ko'rib.
Tong emasdir bo'lsa (bu) muddatda ustodi suxan,
Nodira ash'orig'a tahsin etar Salmon ko'rib.
* * *

Beray jon visol ichra, ey no'shi lab,

Firoqingda tokay qilay tobu-tab.
Jamoling menga muddao subhu shom,
Visoling menga orzu ro'zu-shab.
Agar kelsa boshimg'a tig'i ajal,
Qilurmanmu yo'lingda tarki talab.
Qading misrai sho'xu barxastadur,
Bo'lib husi devonidin muntaxab.
Meni zor Farhodu Majnunnajod,
Erur yor Shirinu Layli nasab.
Na mahfilda shahdu shakar yolading,
Ki bir-birga chaspondur ul ikki lab.
Firoqida sham'i shabi hajrmen,
Emas kuymagim Nodira besabab.
* * *

Ketmadi mendan qadah birla xumori oftob,
Subh yanglig' tortadurman intizori oftob.
Sarf qilg'umdur oni(ng) jomi visoli naqdina
Gar muyassar bo'lsa la'li obdori oftob.
Mohro'larni yuzing oyi musaxxar ayladi,
Muncha bo'lmas anjum ichra iqtidori oftob.
Orazingni (ng) tobidin bo'ldi nazokat dastgoh,
Turfa gullar zohir etdi navbahori oftob.
To yuzing oyi namoyon bo'ldi husn aflokida,
Rashk o'tidin tiyra bo'ldi ro'zgori oftob.
Gar ko'zim husning chirog'idin munavvar bo'lmas,
Ravshan etmas partavi nuri sharori oftob.
Nodira, ohim sinonidin tavahhum tortibon
Charx maydonidadur chobuksuvori oftob.
* * *

Sayd etdi meni ul ikki qullob,
Bo'ynimda kamandi zulfi purtob.
Qoshini qilichig'a bo'yin sun,
Oshiqqa budur tariqi odob.
Gulxan kulida farog'at etgan
Qilmas havasi samuri sanjob.
Tirdoba erur ko'zimni yoshi,
Oshiqni halok etar bu girdob.
Orom toparmu charx davri,
Doim harakat etar bu do'lob.
Olam elida vafo topilmas,
Bu gavhar erur jahonda noyob.
Qondur jigaram labidip ayru,
Keltur menga, soqiyo, mayi nob.
Ushshoq misoli korvondur,
Ul qofilada erur vafobob.
Yosh o'rnida, Nodira, ko'zimdin
Hajrida oqar mudom xunob.
* * *

Agar gulshang'a kirsar sarv gulro'yim xirom aylab,
Yugurgay sarv gul yuz marhabo birla salom aylab.
Xiromon keldi yoru, qomati ta'zimiga bexud
Yiqildim soyadek yerga turarg'a iltizom aylab.
Qilurga kunduzimni kecha xurshidi jamol uzra
Parishon ayladi gisularin subhimpini shom aylab.
Sihi qadlar panohi gul jabinlar podshohisan,
Chamanda sarvni ozod etar qadding g'ulom aylab.
Xusho, oqilki, aylab yaxshiliq bunyodini mahkam
O'tar bu dayr fonidin o'zini neki nom aylab.
Masih azmi safar aylab quyoshg'a bo'ldi hamsoya,
Bo'lur himmat bila aflok ustida maqom aylab.
G'izoli umrkim vahshatdadur payvasta ram birla
Bo'lurmu yuz ming afsun birla bu vahshini rom aylab.
Ko'ngul sayd etgani omoda qilmish ishq sayyodi,
Pariro'lar kamandi halqai zulfini dom aylab.
Qalam tahrir etarda nay shakardin bo'lsa gong ermas,
Labing vasfini aylar Nodira shirin kalom aylab.
Soqiyo, hajr davosini demish gar mayi nob,
Tuta ko'r maykadada qayg'uli oshiqqa sharob.

* * *

Soqiy, menga qadah (tut) bu dayr aro labo-lab,
Zuhd ahlidin o'sondim, tutdim seningla mashrab.
Husning tajallisidin betob mohro'lar,
Andoqki zohir o'lmas xurshid chiqsa kavkab.
Yerimni vasli birla olam munavvar erdi,
Bor erdi mohi tobon xurshidg'a muqarrab.
Majnuni benavoni taklifi joh qilma,
Kim telbalar boshida yo'qdur havoyi mansab.
Muhtoji dargohingmen yuz ming umid birla,
Men qulni bu eshikdan navmid qilma, yorab.
Tig'i zaboning o'ldi miftohi ganji donish,
Allomai zamondur olingda tifli maktab.
Qil, Nodira, muyassar sho'ri junun jahonda
Ishqu muhabbat o'ldi oshiqqa dinu mazhab.

* * *

Chiqdi ul gulgun qabo maydon aro javlon etib,
G'amza tig'i birla oshiqni yurogin qon etib.
Mahvashim maydon aro beparda javlon ayladi
El ko'zin oyinadek diydorig'a hayron etib.
Povaki mujgonlari qatlimg'a tirkish bog'lamish,
Choklig' ko'nglimni qoshi yosig'a qurbon etib.
Ul xudovandiki, qildi yeru-ko'kni oshkor,
Shukrkim, bizni gado qildi, sani sulton etib.
Bo'ylakim mumtoz erursan barcha sultonlar aro,
Shod qilg'il bandalarning ko'nglini ehson etib.
Mubtalomen to asiri zulfi purtobing bo'lay,
Qil meni ozod boshing uzra sargardon etib.
Boqmading bir lutf ila, ey bemuruvvat sang dil,
Nodira hajringda yig'lar nolau afg'on etib.
Men ki qoldim hajr vayronida besomon bo'lib,
Yer kelmas kulbai ehzonima mehmon bo'lib.
Dashtu sahro din so'rog'ingni topolmay dard ila
Aylanib keldim yana g'am uyiga hayron bo'lib.
Sharbati la'ling xumori birla chandon yig'ladim,
Qatra-qatra ko'zlarimdin oqti bag'rim qon bo'lib.
Vasl aro mag'rur edim diydorig'a, shomi firoq
O'rtadi jismimni oxir otashi hijron bo'lib.
Aylasam devonalig' ayb etmangizkim, ul pari
G'oyib o'lmishdur nazardin jilvasi pinhon bo'lib.
Nodira, ul mehri tobon shavqida qildim junun
Oshkoro bo'ldi ishqim shuhrai davron bo'lib.

* * *

Chaman riyozila gulgasht murg'zor qilib,
Ko'ngulni sayd etar sarv qad shikor qilib.
G'izolalarni ko'zi sayd qildi sahroda,
Qoshi uqobini shohin patiga yor qilib.
Kelurmukin yana ul shahsuvor maydong'a?
Ki bordi ul kecha ko'zlarni intizor qilib.
Qilurmen ishqu junun karvonig'a imdod
Sirishk noqalarin ashki shashqator qilib.
Tanimda hajr o'qini zaxmi benihoyatdur
Ki bo'lmag'ay ani yuzdan birin shumor qilib.
Netayki dahr guzargohida bu telba ko'ngul
Yo'luqti hajriga vaslini ixtiyor qilib.
Jahonda, Nodira, yoring pari misol erdi
Bo'lurmu husnini oyinaga duchor qilib.

* * *

Yuzingdur qiblai ahli munojot,
Jamoling sham'idin ravshan xarobot.
Bugun mayxonada sahbo qilur jush,
Erur piri mug'ondin bu karomot.
Surohi qul-qulin aylar muqarrar,
Erur bu chor quldin daf'i ofot.
Chu haq mavjud erur, odam adam bil,
Suluk ahliga budur naf'yu isbot.
Ko'tarmak tog'ni oson emasdur
Menu hijron g'ami hayhot-hayhot.

Meni holimg'a yig'lar oshinolar,
Erur hayron menga begonadin yot.
Jahonda, Nodira, ishq ixtiyor et
Muhabbatsiz kechurgon hayf avqot.

* * *

Rafiqo, menga bir dam do'stlig' rasmini izhor et,
Ki men bordim o'zimdii, yor agar kelsa, xabardor et.
Qachon ishq ahlini o'lturmog'ini ixtiyor etsang,
Jafo tig'i bilan avval meni(ng) bag'rimni afgor et.
Haqorat birla, ey soqiy, boqar mayxona ahlig'a,
Sunib bir jomi may zohidni anda naqshi devor et.
Mening holimg'a yig'lar dashtu sahrolarda vahshilar,
Agar ko'yiga borsang, ey sabo, yoring'a izhor et.
Erur piyri mug'ondin bu bashorat, turgil ey, soqiy,
Labo-lab jom ila zohidni da'vosini bekor et.
Qading ra'no niholi sarvdur, jono, xirom aylab
Chaman gulgashtida tovusqa sen ta'limi raftor et.
Yumulmas ko'zlarim, ey mohi toboi, ishtiyoqingdin
Chiqib yer ostidin mushtoqlarg'a arzi diydor et.
Zulayxo mushtaridur ganj gavhar birla vaslig'a,
Jahon ahlinn Yusufdek jamolingg'a xaridor et.
Guli savsan ochildi, benavoliq qilma, ey bulbul,
Chamanda Nodira ash'ori birla nolau zor et.

* * *

Gar ahli vafo istasa koshona salomat,
Bo'lsun meni maxmurg'a mayxona salomat.
Ul husn shifoida ko'ngul kuysa ajab yo'q,
Qolg'aymu chirog' ustida parvona salomat.
Devona muhabbat yo'lida bevatan ermish,
Obod agar bo'lmasa, vayrona salomat.
Gar sinsa surohiyu, sabuh zohid alinda,
Bo'lsun meiga sog'ar ila paymona salomat.
O'lmak zararidin meni bir zarra g'amim yo'q,
Gar bor esa jon bergali jonona salomat.
Yaxshi-yu, yomon bir-bnriga mug'tanam ermish,
Farzona tirik bo'lsin-u, devona salomat.
Obod o'la, ey Nodira, iqlimi tajammul,
Jamshidi zamon, xisravi Farg'ona salomat.

* * *

Na gul sayr ayla, na fikri bahor
Jahondin kech, hayoli vasli yor et.
Muhabbatsiz kishi odam emasdur
Gar odamsan muhabbat ixtiyor et.
Uzoru qaddu, raftoringni ko'rsat,
Chaman sarvu gulini sharmsor et.
Labi maxmurdurmen jomi may tut,
Karam qil, soqiyo, dafi xumor et.
Aialhaq, mojarosin aylading fosh,
Kel, ey, Mansur, istiqboli dor et.
Duri ashku aqiqi, xuni dilni,
Kelu yoring ayog'iga nisor et.
Kuyib, ey Nodira, olam elig'a
Muhabbat shevasini oshkor et.

* * *

Kelg'il, ey yor, vafo rasmini tut,
Sham'i ruxsor ila kulbamni yorut.
Yer la'li labidin ayrilding,
Ey ko'ngul, emdi damo-dam qon yut.
Ko'zlarim yig'ladi zulfingni ko'rib,
Ki yog'in boisidur tiyra bulut.
Qil faromush bu olam g'amini,
Boda ich, may bila ko'ngulvi ovut.
Kishig'a himmati mardona kerak,
Yo'qki, oroyish ila rishu burut.
Xuni dil birla jigar porasidin
Bodadur la'li mufarrix yoqut.
Nodira da'viyi ishqingni qilib,
Qo'li bu mahkamada topti subut,

* * *

Ey sabo, rozi dilimni bexabar yoring'a ayt.
Dardlig' ko'nglimni ahvolini dildoring'a ayt.
Hajr dardidin yurakda qoldi dog' ustida dog',
Sharh etib bu mojaroni lola ruxsoring'a ayt.
Furqat ichra tushdi savdoi Zulayxo boshima,
Qimmatu Yusuf baho topti xaridorim'ga ayt.
Lutf etib so'rsa meni xolimni ul nomehribon,
Uldi hijroningda deb yori vafodoring'a ayt.
Sendin ayru talxikom etdi debon zahri firoq
Yoshurun dardimni ul la'li shakarborim'ga ayt.
Yuz salom aydim, na bo'lg'ay bir yo'li ul ham desa
Bul salomimni o'shal oshiftai zoring'a ayt.
Nodira sensiz tiriklikdin na rohat ko'rdi deb
Ul humoyun toli'i farxunda atvorim'ga ayt.

* * *

Sayr etarda naxliston yor qaddini yod et,
Men qachon dedim senga, orzui shamshod et.
Hajr shehnasi oxir o'ltirar asiringni
Bir qiyo boqib, jono, bandi g'amdin ozod et.
Bo'ldi yor savdosi, oshiq ersang, ey ko'nglum,
Naqd jon muhayyo qil, yor xotirini shod et.
E, ko'ngul, fig'oningdin tiyradur falak qasri,
Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et.
Qon to'karga moyildur qoshlaringni shamshiri,
Elni qatli om etsang, ko'zlarini jallod et.
Gulshan ichra, ey bulbul, subhdam navo tortib,
Gul yuzini yod aylab, nola birla faryod et.
Nogoh ul jahon shohi kelsa, ey ko'ngul, borg'il,
Shoh inonini ushlab, hajr ilgidin dod et.
Dahr kishzorida bir sharoru yuz xirmon,
Kuydirurg'a olamni barqi ishq bunyod et.
Hajr mojarosig'a, Nodira tahammul qil,
Beqaror ko'nglingni sabr birla mu'tod et.

* * *

Hajrdin maxmurmen, soqiy, labo-lab jom tut.
Men kabi har kimki bo'lsa rind dard oshom tut.
Istasankim, dargohida posbon o'lmoq mudom,
Berma vahshat hajr ila ko'nglim g'izolin rom tut.
Benavolarmiz, falak xurshidi yanglig', soqiy,
Jomi sarshori sabuhi bizga har ayyom tut.
Bo'lsa gar maqsad ko'ngullar qushlarin sayd aylamak,
Dona qil xoliigni, zulfing halqasidin dom tut.
Yer kuyi itlarig'a nogoh o'lsang hamnishin,
Oshnolardur alarg'a izzatu ikrom tut.
Gar zamone dahr g'avg'osidin istarsen faror,
Sokini mayxona bo'l, bir go'shada orom tut.
Bo'lmag'il Farhodu Majnundek jahon afsonasi,
Ishq aro, ey Nodira, oyini nangu nom tut.

* * *

Oshiq o'lding, ey ko'ngul, emdi rohi mayxona tut,
Mast o'lib, soqiy ayog'ini o'pib paymona tut.
Eyki dersan, oshino, begonadin ko'rmay zarar,
Olam ahlidin o'zingni bir yo'li begona tut.
Husni ishq aylar sening xokistaringni to'tiyo,
Sham'idan kuymakni kasb et, mazhabi parvona tut.
Gar tilar bo'lsang havodis shohibozidin omon,
Nug'z yanglig', ey ko'ngul, bir go'shada vayrona tut.
Donishu fahmu xirad, sabru sukunu aqlu hush,
Barchani parvonai sham'i ruhi jonona tut.
Bo'lma giyru dorig'a mag'rur gar oqil esang,
Davlati dunsni uyqu farz qil, afsona tut.
Aylagil obod tavfiq adolat mulkini,
Nodira, mavlo yo'lida himmati mardonit tut.

* * *

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shahu, men benavo lutf ayla, faryodim eshit.
Dudi ohim shu'lasi husning daberistonida

Misra'i barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.
Sarvinozim, sendin ayru naxli ohim bo'ldi xam,
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.
Har nechakim sabr ta'mirini bun'yod ayladim,
Ashk selobida vayron o'ldi obodim, eshit.
Barcha yoru oshnodin aylading begonalig',
Necha kunlar bo'ldi hargiz qilmading yodim, eshit.
Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqmen,
Telba bo'ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.
Nodira bodi sabodin senga irsol etgali
Qildi insho bu g'azalni tab'i noshodim, eshit.
* * *

Meni(ng) jununima Majnunni bermangiz nisbat,
Qilurmu xoru xashak tobi shu'lai g'ayrat.
Chekarda jov menga taqlid qilmasin Farhod,
Firoq tog'ida behuda chekmasun kulfat.
Meiga barobar emas ko'hkan bilan Majnun,
Alarda yuz g'am edi, lek menda ming hasrat.
Jahonda bo'ylaki bo'lmishmen ishq oyinasi,
Menga ziyoda bo'lur yor husnidin hayrat.
G'amimni zarrasini tog'larga arz etsam,
Tahammul aylamagay, tog' keltirib toqat.
Bu dardu g'amki aning notovon ko'ngul ko'tarur,
Muhabbat ahlig'a yuzdan biri erur ofat.
G'amimni sharhini yuz minggidin birini dedim,
Falak ani ko'tarurda xam ayladi qomat.
Bu g'amni tog' ko'tarmas edi, valek menga
Berib tahammulini qo'ydi jonima minnat.
Siyehr martabai ishqni baland ko'rib,
Dediki Nodirani himmatiga yuz rahmat.
* * *

Necha muddatki ko'ngul g'ayr ila tutti ulfat,
Meni sargashtani dog' ayladi favti fursat.
Bormog'im amr ila ul, yerga zarurat erdi,
Yo'qsa shoyista etmas bandag'a tarki xizmat.
Surmai chashmi dilimdur eshiking tuprog'i,
Dargohingdin menga ovvoralig' ermas hojat.
Sa'd erur axtari iqbol humoyun toli',
Saltanat chokaru, quldur senga baxtu davlat.
Xizimating boisi osoyish erur qullarg'a,
Sendin ayrilsa kishi umrida yo'qdur lazzat.
Ostoningga qo'yib farsh qilay boshimni,
O'zga manzilda topilmas menga sepsiz rohat.
Ko'kaning bandalig'in Nodirag'a arz aylab
Qo'yg'il, ey bodi sabo, jonima andin minnat,
* * *

Ramozon oyida har kimda farovon hojat
Elgadur sham'u menga diydai giryon hojat.
Basdurur kavkabi ashkimni chirog'i kechalar
Menga g'am shomi emas, sham'i shabiston hojat.
Ro'za iftorida xuni jigarimdur kofi
Benavolarg'a emas ne'mati alvon hojat.
Shoh- haqig'a duo olmoq uchun kulbambg'a
Shom vaqtida bo'lur har kecha mehmon hojat.
Bog'aro dilni etar mashqi xayoli ranggin
Bog'bon, menga emas sayri guliston hojat.
Har faqiriki qilur xokn harimida maqom
yo'q anga saltanati qaysaru, xoqon hojat.
Ro'zaga Nodira boz ayla sahovat eshikin
Bo'lsa haq rahmatidin ravzai rizvon hojat.
* * *
* * *

Soqiyo, maxmurdurmen jom tut,
Bir nafas tarki g'ami ayyom tut.
Domi g'amdin istabon ozodlig',
Sog'ari may subhdii to shom tut.
Boda no'sh et, qilma beoromlig',
Aysh vahshidur, zamone rom tut.

Ey pari paykar, ko'zimni manzari,
Xush nashimandur dami orom tut.
Emdikim, oshiq bo'libsei, ey ko'ngul,
Vaslii istab tarki nangu nom tut.
Gar ko'ngul saydi senga maqsad esa,
Halqa-halqa sunbulini dom tut.
Vasl jomi to sening ilkingdadur,
O'zni yo Jamshid, yo Bahrom tut.
Sof may gar no'sh etarsen, durdini,
Bazli jomi rindi durd oshom tut.
Vasl aro kom istabon ey, Nodira,
Endi o'zni necha kun nokom tut.

* * *

Har kimda agar bor esa osori muhabbat,
Aylar anga mahubblar izhori muhabbat.
Mayxonai ishq ichra xush ul rindnki, tunlar
Bir jur'a uchun bor esa bedori muhabbat.
Xushdur kishi dunyo g'amini qilsa faromush
Lojur'a chekib sog'ari sarshori muhabbat.
Tut g'ayrdan ey xasta ko'ngul, dog'ini pinhon,
Gar so'rsa birov aylag'il inkori muhabbat.
Rohat tilasang ishq binosini panoh et,
Osuda erur sopi devori muhabbat.
Bolini uza bordi ayodatg'a Masiho,
Xurshid edi charxida bemori muhabbat.
Gar ta'nai ag'yordin, ey dil, hazar etsang,
Olam elig'a bo'lmag'il iqrori muhabbat.
Tasbihi riyoi ila mag'rur edi zohid,
Tavfiq topib bog'ladi zinnori muhabbat,
Ey Nodira, zuhd ahlini mayxonada ko'rsang,
Dam urmaki, fosh o'lmasin asrori muhabbat.

* * *

Kel dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.
Bedardlaring jafelaridin
Faryod chekib fig'on etib ket.
Dunyo chamaniii bulbulisen
Gul shoxida oshyon etib ket.
Ey ashk, ko'zimni maktabidin
Hayrat sabaqin ravop etib ket.
Olam chamaniki bevafodur,
Bir oh bila xazon etib ket.
Ushshoq maqomi bo'stondur,
Azmi rahi bo'ston etib ket.
Maqsad na edi jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.
Fosh etma ulusqa ishq sirrin,
Ko'ngulda ani nihon etib ket.
Kel ishq yo'lida ko'zlaringni
Ey Nodira, durfpshon etib ket.

* * *

Jon ko'rmadi ro'zadin halovat
Iftorda yorsiz na lazzat!
Yor aylasa yori birla iftor,
Yo'q ro'zada mundin o'zga davlat.
El barcha visol bazmida shod,
To subh chekib surudi ishrat.
Har shom menga navolai g'am
Iftor qilurga bo'ldi qismat.
Mohi ramazonki, fayzi cho'qtur,
Men xastaga yorsiz na rohat.
Har shom ko'zimni yoshi sham'im,
Xuni jigarim ba joyi sharbat.
Hijron ila ro'za javr etolmas,
Gar yor esa, Nodira, salomat.

* * *

Kuyma deb aylamadi hech kishi parvonaga bahs,
Oqil ersang na qilursan meni devonaga bahs.

Shisha sarshori mayi nob erur so'rma sabab,
Labidan nash'a topar aylama paymonaga bahs.
Sho'xlik birla Xo'tan dashtida Mochin kiyiki
Bo'ldi rasvo, qilib ul nargisi mastonaga bahs.
Sirri zulfi girihin ochmoq emasdur oson,
Besabab aylama mashshota bugun shonaga bahs.
Seli sahrada qilur shavq ila javlon, lekin
Chug'zni dushmanidur aylasa vayronaga bahs.
Dardlig' qissai ishqim ne emishdi Farhod,
Telba Majnundek ani qilsa bu afsonaga bahs.
Aylading jahd ila ta'miri muhabbat obod.
Kim qilur, Nodira, bu himmati mardonaga bahs.

* * *

Jonimg'a jafolar bala jonona qilur bahs
Bir lahza ko'zim yoshinn to'fona qilur bahs.
Ul zulfi dil oviyzini ishqolimi ochman,
Behuda nadin til tuzatib shona qilur bahs.
Zohid, meni devonaga ko'rguzma taarruz,
Majnunni qachon oqilu farzona qilur bahs.
Kuymoq erur oshiq ila ma'shuq tariqi,
Bir mahfil aro sham' ila narvona qilur bahs.
Kimdur to'lin op bo'lsa jamolingga barobar,
Xurshida qulog'ingda(gn) durdona qilur bahs.
Bu marhalada qolmadi xalq ichra tafovut,
Bu turfaki oqil ila devona qilur bahs.
Otashmidur, ey Nodira, bu madrasa ahli,
Har necha ki taslim etaram yona qilur bahs.

* * *

Har qachon kim desa ul la'li shakarbor hadis,
Talx o'lur to'tiya guftor ila bis'yor hadis.
Gungu lol o'lg'usidur bulbulu to'ti nogoh
Ul shakarlab nafasi aylasa izhor hadis.
Bildilar chunki jahon ahli hadisini sahih,
Tong emas bo'lsa ulus og'zida takror hadis.
Ishq asrorini izhor qilib fosh etma,
Kim bu yanglig' demish ul voqifi asror hadis.
Labidin so'rma hadisiki erur tilga garon,
Yor nozik labig'a bermasin ozor hadis.
Belini(ng) borlig'in qildi kamarbandi ayon,
Og'zi yo'q erdi, ani qildi padidor hadis.
Sharh etib yozmoq uchun la'l labingni sifatini,
Nodira ayladi chun gavhari shahvor hadis.

* * *

Damiki lablaridip zohnr etsa yor hadis,
Ulusni kotirini aylagay shnkor hadis.
Labing hadisini jon lavhina savod ettim,
Ko'zim qarosi kabi bo'ldi mushkbor hadis.
Guhar o'zini sadaf ichra ayladi pinhon,
Chu zohir ayladi ul la'li obdor hadis.
Biri labingni hadisidek obdor etmas,
Ko'ngul sahifasina yozmisham hazor hadis.
Kalom chog'ida har so'zki zohir etdi labing,
Sadaf guharlaririi qildi sharmsor hadis.
Takallum etdi muloqot la'l nobing ila,
Fasohat ahli aro topdi e'tibor hadis.
Labingdin ayru tushib Nodira kitobot ila
Qaro libos kiiib qildi suvguvor hadis.

* * *

Bevafodur bu jahon sudu ziyon barcha abas,
Kim g'amu ayshu bahor ila xazon barcha abas.
Bo'lma andishai savdosi bila sargardon,
Yo'qu bori g'amidin vahmu gumon barcha abas.
Topmasa yor janobig'a sharaf birla qabul,
Ohu faryoding ila sho'ru figon barcha abas.
Bo'lmasa oshiqqa gar yor visoli maqsud,
Orzui havasi jonu jahon barcha abas.
Fuqaro holig'a gar boqmasa har shoh, anga
Hashmatu saltanatu raf'atu shon Sarcha abas.

Yuoh uldurku, raiyatga tarahhum qilsa,
yo'q esa qoidai amnu omoi barcha abas.
Nodira, bo'lmasa gar ishq o'tini ta'siri,
Alami zohir ila dog'i nihon barcha abas.
* * *

Ketdi hushum ul parivash jilva og'oz aylagach,
O'rtada jon pardasin mutrib navo soz aylagach.
Tong emas qilsa yuzi mashshotani bedastu po,
Ayladi oynani suv, chehra pardozi aylagach.
Lablari to'kti tabassum shahdndin obi hayot,
Ko'zlari yuz fntna barpo apladi, noz aylagach.
Noz birla bog'boni sun'i bu gulzor aro
Sabz xurram qildi sarvingni sarafroz aylagach.
Fursati umri kiromi etganin rasvo, ko'ngul
Bildi g'aflat uyqusidin ko'zlarin boz aylagach.
Sayd etar bir damda olam ahlinn murg'i dilin,
Qoshlarin shohin etib, ko'zlarni shahboz aylagach.
Vomiqu Farhodu Majnundin muqaddam bildi yor,
Nodira ishqini oshiqlikda mumtoz aylagach.
* * *

Ko'zlarim mushtoqdur diydor uchun ruxsora och,
Pardani yuzdin ko'zim qilg'uncha bir nazzora och.
Pardai nozu hayo xomush la'lingdin ko'tar,
Ikki gul bargini birdin guhar guftora och.
Besutun tog'ida ko'p jon chekmag'il, ey ko'hkan,
Ko'kragimdin juyi shir o'rnig'a o'tlug' yora och.
Ey ko'ngul, dudi fig'oningdin kavokib tiyradur
Oh ko'p chekma, hijobi sobiti sayyora och,
Shavq komil bo'lsa muxlis ko'chasi masdud emas,
Ey sharar, bir jazba birla rohi sangi xora och.
Muncha pinhon dog'kim, ey jon, falak qo'ydi senga,
Yor agar kelsa giriboningni aylab pora, och.
Nodira ohi dilu sho'ri junun barpoy qil,
Ushbu lashkar birla olam mulkini yakbora och.
* * *

Tiyr dilman shona zulfingni parishon aylagach,
Subhi ayshim shomi g'amdur chehra pinhon aylagach.
Soldi ishq ahlig'a rastoxez hijron ofati,
Ohni sarsar qilib, ashkimni to'fon aylagach.
Bargi gul keltirmadi ul husni anvorig'a tob,
Qildi gullarni xazon sayri guliston aylagach.
La'lidin dardimga darmon aylar erdi vasl aro,
Chora qilmas muftaloi dardi hijron aylagach.
Benavoman dayr aro soqiyni istig'nosidin,-
Jomni yig'latdi miyno bag'rini qon aylagach.
Chobukikim, g'amza tig'i birla ushshoq ahlini
Qatli om aylar, ko'zi maydonda javlon aylagach.
Nodira gar vasli davronni g'animat bilmadi,
O'rtanur erdi xayoli shohi davron aylagach.
* * *

Ey ko'ngul, yor uchun jahondin kech,
Havasi bog'i-bo'standin kech.
Anga o'zluk bila yetib bo'lmas,
Istasang yor vasli jondin kech.
Olam ahlida chun vafo yo'qtur,
Bir yo'li yaxshiyu, yomondin kech.
Bo'lg'il anqoi qofi istig'no,
Ey humo, mushti ustixondin kech.
Bo'lding, ey jon, asiri shahri fano,
Kim dedi mulki jovidondin kech.
Kech deding yoru oshinolardin,
Menga lekin dema falondin kech.
Nodira sho'ri ashki daryodur,
Ushbu daryoi begirondin kech.
* * *

Vasli yor istasang jahondin kech,
Harna taqdiring o'lsa ondin kech.
Tilasang vasl, o't jahon g'amidin,

Na jahon, balki jismu jondin kech.
Bir nazar qomati xiromig'a boq,
Muddati umri jovidondin kech.
Bordur olam binosi vahmu gumon,
En ko'ngul, vahm ila gumondin kech.
Bo'lmagil yaxshiyu, yomong'a taraf,
Bexud o'l, yaxshiyu, yomondin kech.
Ko'yi tufrog'ini nashiman qil,
Sayri gulzoru bo'standin kech.
Yorkim yer tubida pinhondur,
Nodira, mohi osmonidin kech.

* * *

May ichsang, ey ko'ngul, eldin nihon ich,
Labi yodi bila may royigon ich.
Agar g'amdin xalos o'lmoq tilarsen,
Surohidek sharobi arg'uvon ich.
Ko'ngul, shodob eding vasli mayidin,
Labidin ayru tushding emdi qon ich.
Kirib mayxonag'a g'amdin omon top,
Damo-dam jom tut, may har zamon ich.
Mayi nob el iyoriga mahaq (dur)
O'zingni aylamakka imtihon ich.
Budur mazmuni mavji bodai nob
Ki sahbo pirni aylar juvon, ich.
Senga, ey Nodira, jomi muhabbat
Chu sundi soqiyi shirin zabon, ich.

* * *

Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj,
Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.
Hech kim olamda forug'bol emas,
Har kim o'z miqdoricha bor ehtiyoj.
Ganji husningni zakotin ber menga,
Sen g'aniysan, menda bisyor ehtiyoj.
Ko'zlarim aylar yuzingni orzu,
Kim erur ko'zguya diydor ehtiyoj.
Mustamand etti meni muhtojlik,
Qildi hojatmanding, ey yor, ehtiyoj.
Gar tilarsen obro' ahhob aro,
Aylama zinhor izhor ehtiyoj.
Qil ravo albatta oshiq hojatin,
Boqmag'il arz etsa ag'yor ehtiyoj.
Bir tarahhum zohir etsang netgusi,
Qildi husningga meni zor ehtiyoj.
Yer vaslini tilarman, Nodira
Ayladi ko'nglimni afgor ehtiyoj

* * *

Ey jamoling sabohat ichra sabih,
Husn ahli zimrasida sabzi malih.
Bo'lma mag'rur muddai so'zina,
Ani qavli sahimdur, na sahih.
Men kabi lofi ishq urib zohid,
Elga rasvolig'in qildi sarh.
Lablaringdur Masihu, Xizr labing,
Sendin istar hayot Xizru, Masih.
Kufr islom eliga zulfingdin
Aqlu zinnoru halqau, tasbih.
Tarki ishq et, dedi menga zohid,
Demadi hech telba muncha qabih.
Nodira vozei maoniyi shavq
Anga taslim etar sharifu, vazih.

* * *

Firoqing otashidan ohu avvah,
Ki toqat aylamas bu o'tqa do'zax.
Yurak zaxmida paydo bo'ldi yo'l-yo'l
O'qing paykoni go'yo erdi rax-rax.
Bali bir-birga oshiq birla zohid,
Muxolifdur nuchukkim o't bila yax.
Shah aylar masnadi noz uzra orom,

Meni devonaga bas xoki go'lax.
Jahon, ey Nodira, ed maqtalidur,
Emastur joyi osoyish bu maslax.
* * *

Agar bo'lsa kishini yori farrux,
Muborakdur yuzi diydori farrux,
Qani ul yordek shirin shamoyil,
Jamoli dilkashu, atvori farrux.
Mening yorim parilar shohi erdi
Labi shahdu, shakar guftori farrux..
Niholi qomati sarvi xiromon,
Yuzi gul, la'li shakarbori farrux.
Erur mayxona fayzi maymanatlig',
Labo-lab sog'ari sarshori farrux.
Menga zohid yuzidur nomuboran,
Valekin jubbau dastori farrux.
Bo'lubdur Nodira mumtozi ma'ni,
Kalomi ravshanu ash'ori farrux.
* * *

Riyu, hirsu, tama' savtidur taronai shayx
Eshitmagum, hama afsun erur fasonai shayx.
Sanamlar ishqina toqat qilolmayin nochor
Yoshundi savmaaga zuhd o'lib bahonai shayx.
Riyu zaraq g'ariqida tashnakom o'lur,
Sarobi bahri xayoloti begironai shayx.
Xamush etarman ani bir sharori oh ila,
Agarchi tez erur o't kabi zabonai shayx.
Ko'ngullar o'ldi sovuq suhbatidan afsurda,
Erur chu bodi xazon ohi oshiqonai shayx.
Berur g'urur ila oroyishi fashu dastor,
Ki xudnamolig' erur zebi korxonai shayx.
Topilsa, Nodira, bir shayxi orifi komil,
Boshim havosin etay nazri ostonai shayx.
* * *

Yor kerak oshiqqa, menda sevar yor yo'x,
Dardu g'amim beaded so'rgali g'amxor yo'x.
To abad odob o'la shahri fano ko'chasi,
Jannat erur oshiqqa andaki ozor yo'x.
BO'ldi xayoling bila ko'nglim uyi dilkusho,
Kelki, bu zayronada soyai devor yo'x.
Mahfili ayyom aro moyai ayshu nashot
Barcha muhayyo menga, hayfki, dildor yo'x.
G'unchau gul teng emas la'ling ila ogzinga,
Gulda shakar xandau g'unchada guftor yo'x,
O'tsa xirom aylabon jilva bila chobuknm
Yetmas aning qaddig'a sarvda raftor yo'x.
Elga ne tong aylasa ohu fpg'onim asar,
Menga bukun, Nodira, yordin osor yo'x.
* * *

Bog' sayr et, karami dovara box,
Gulni boshidagn toji zara box.
Xudi zarrin menga ohim sharari,
Sham'i farqi sarida mag'fara box.
Qon to'kar g'amzasi, mujgonlari ham,
Ko'zi qatlig'a chekan xanjara box.
Hajr tig'i bila bag'rim yuz chok,
Ani har chokiga yuz ming yara box.
Sham' yanglig' giyah burkin zarrin
Dudi ohimdin etar qarqara box!
Vahshat aylarmu kiyik Majnundin,
Menga, ey ko'zlari ohu, bara box.
Nodira, dahr elini sarhuga bil,
Soqiyi davr alida sog'ara box.
* * *

Ul pari paykarki hajridin jahonim bo'ldi talx,
Sharbati la'lidin ayru komi jonim bo'ldi talx.
Voykim, jomi visolidin farah topti raqib,
Ishratim, ey soqiyi shirin zabonim, bo'ldi talx.

Komi jon vaslingda shirin erdi men masti g'urur,
Emdi hijroningda, ey nomehribonim, bo'ldi talx.
Ne halovat ko'rgamen hajringda bu mayxonadin,
Nash'a zahr o'ldi, sharobi arguvonim bo'ldi talx.
Siybi g'abg'ab birla unnobi labing hijronida,
Mevai alvoni bog'u bo'stonim bo'ldi talx.
Sharbati la'lingdin ayru topmadim jon lazzatin
Komima ishrat mayi, ey dilistonim, bo'ldi talx.
Vasl davronida ayshu ishratim jovid edi.
Nodira, hijronda ayshi jovidonim bo'ldi talx.
* * *

Tushti ohimdin bu oqshom charx maydonig'a dud,
Kim asar qildi falakni mehri tobonig'a dud.
Bahri ashkimdin rutubat keti to taxtassara,
Yeti ohimdin falak toqi namoyoniga dud.
Kecha ul gisu tamannosida chektim ohlar,
Tong emas andin tutashsa charx ayvoniga dud.
Sham'i ruxrosshsh atrofida pechitob o'rar,
Turfa o'xshar yorning zulfi parishonig'a dud.
Sham'dek o'rtab tanimni ehtiyot et dudini,
Kim keraklikdur savodi xatti rayhoniga dud.
Yor ushshoqini sham'i jilva ravshan qilmasun,
Kim tushar andin raqibi ro'siyah jonig'a dud.
Kuydi bag'rim oh misra'ini insho aylagach,
Tushti andin Nodira avroqi devonig'a dud.
* * *

O'tdi ko'ksimdin o'qing sarviravondin berdi yod,
Zaxmlarkim qoldi andin gulistondin berdi yod.
Mehnati hijron aro nokomlig' chekkanlara
Vasl aro o'lmak hayoti jovidondin berdi yod.
Ogah etdi elni ashkim sobiti sayyorasi,
Dudi ohimdur falakda qahkashondin berdi yod.
Aylagach barbod ayshim hosilin hijron yeli,
Oshinolarg'a sarig' rangim samondin berdi yod.
Voqif o'ldim dahr bog'ini guli ra'nosidin,
Kim bahori rang kelturgach xazondin berdi yod.
Yoridan ayrildi deb har kun menga davri falak
Ko'rguzib mehrini ul nomehribondin berdi yod.
Nodira, qilg'och muhabbat nash'asidin guftigo'
Lazzati she'ri Umar sohibqironidin berdi yod.
* * *

Ul sarvki bordur ani mavzun qadi ozod,
Mashshota uchun shona chekar zulfiga shamshod.
Mardumlig' ila ayladi ul oy meni rasvo,
Nayrang ila xud telba qilur elni parizod.
Qoshi qalami birla qilur qatl damo-dam,
Ushshoqlarin ikki ko'zi bo'lgali jallod.
Ul g'amza senga javru jasfo ilmin o'qutti,
Afsuski, ta'limi vafo bermadi ustod.
Sen tarki vafo qilding badmehrlig' etdning,
Yoring(ni) faromush qilib aylamading yod.
Ohim sharari qilmadi ko'nglingni muloyim,
Harchand muloyim bo'lur o't tobida fo'lod.
Barpoy tutib qoidai mehru muhabbat
Tark aylamading, Nodira, davlat uyi obod.
* * *

Chun mendin uzdi mehrini ul yor mo"tamad,
Begona bo'ldi bir-biridin jon ila jasad.
Bo'lsam firoq lashkaridin munhazim, netong,
Sabru sabot cherikidin yetmadi madad.
Men notavon xastani ul oy jamolidin
Mahrum qildi toli'i bargashta, baxti bad.
Yo'q og'zining so'rog'ida, ey jon, nishon tilab
Tushding adam tariqina kimdir senga balad.
Yo'q, sendin o'zga dodrasi dayru, Ka'bani,
Sen-sen murodi kimki sanam deru, yo samad.
Har kimki topsa ishq adabgohida qabul,
Qilmas ani takallumini hech kimsa rad.

Dardi firoq shiddatidin bildi Nodira
Do'zax azobidin g'ami hijron ekan ashad.
* * *

Ajalni dastidin yuz dodu faryod,
Ki umrim hosilini berdi barbod.
Muzayyan qilma tarxi istiqomat,
Jahoni bebaqodur sust bunyod.
Ko'ngul qasri muhabbat dog'i birla,
Muabbad to abad ma'muru obod.
Jahon makkora zoli bevafofur,
Vafo birla ko'ngulni qilmadi shod.
Qani Farhod ila Majnun nishoni.
Qani Shirinu Layli aylag'il yod.
Aloyiq barcha zanjiri ajaldur,
Qo'yar andog'ki domi hiyla sayyod.
* * *

Bording nazarimdin, ey parizod,
Men qulni dubora qilmading yod.
Hajr ichra firoq shiddatidin
Yuz nolau sad hazor faryod.
Qonlig' ko'ngul ichra maddi ohim,
Andog'ki chamanda sarvi ozod.
Mujgon ila nargisingdin, ey sho'x,
Kasb ayladi qon to'karni jallod.
Men oh ila tog'ni suv qildim,
Tund ayladi teshasini Farhod.
Faryodki hajr tund bodi,
Ayshim chamanini berda barbod.
Din Nodiradin kamol topdi,
Iqbol rafiqu mulki obod.
* * *

Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.
Ul parivash vaslidin bo'ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz.
Yor uchun ag'yor dardin tortaman,
Ko'rmadim bir yorni ag'yorsiz.
Tan buzuldi, endi rohat qolmadi,
Soya paydo bo'lmadi devorsiz.
Berma nisbat qaddiga, ey bog'bon,
Sarvdur bu bog' aro raftorsiz.
Nodira ahvolidin ogoh bo'ling,
(Ey musohiblarki, qolmish yorsiz).
Lug'at

A

Abas - befoyda.

Avbosh - bezori, tarbiyasiz.

Abjad - arab alifbesining bosh harflari: a, b, j. d - larning yig'indisi. Alifbening boshi ma'nosida ishlatiladi.

Avqot - vaqtlar, vaqt so'zining ko'pligi.

Adam - yo'qlik, adam bo'lmoq - yo'q bo'lmoq.

Ajuza - qari xotin, kampir.

Azm aylamoq va azm etmoq - niyat qilmoq, qasd qilmoq.

Anjum - nujumlar, yulduzlar.

Ato - bag'ishlash, ahvol.

Alloma - olim; bir sohaning bilimdoni.

Amnu-amon - tinchlik.

Analhaq - arab tilida "men haqmen", ya'ni "xudo men" degani. ("Ana" arab tilida "men", "alhaq" haq - "xudo"): Qadimgi manbalarning bildirishicha: Mansur dunyoning bevafofigidan xafa bo'lib, analhaq - men o'zim xudomen deb yurar ekan.

Angisht - barmoq.

Anqo - qushlarning podshosi hisoblanmish bir qush. Ba'zan yo'q narsaga yoki kamyob narsaga ham o'xshatiladi.

Arsa - maydon.

Arg'uvon - qizil daraxt.

Ashk - ko'z yoshi.

Atvor - "tavr"ning ko'pligi - yurish-turish, xulq, chek, harakat, miqdor.

Atfol - "tifl"ning ko'pligi - go'daklar, bolalar.

Afgor - yaralangan, majruh, afgor aylamoq - yaralamoq.

Aflok - "falak"ning ko'pligi - ko'klar, falaklar, osmonlar.

Afsun - diqqatni tortish, rom etib olish.

Afsurda - sovigan, muzlagan, birovdan ko'ngli qolgan ma'nosida ham ishlatiladi.
Asror - sirlar.
Ayodat - xabar olish, ko'ngil so'rash.
Ayog' - may ichadigan piyola.
Ahhbob - "habib"ning ko'pligi - do'stlar, yorlar, sevimlilar.
Ahmadi muxtor - Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning sifati.
Ayyom - "yavm"ning ko'pligi - kunlar.
Aqiq - haqiq, qizil tusli, qiymat baho tosh. Ba'zan go'zalning labi (qizil lab) deb kinoya etiladi.

B

Badxoh - yomon o'yli, yomon fikrli.
Bazl - saxiylik, saxiylik bilan sarf etish; tortiq, hadya.
Batho - Makka shaharining yaqinidagi vodiylar nomi. Asli ma'nosi yomg'ir suvi oqadigan keng joy.
Balad - shahar
Bargashta - sindirilgan, xafalangan, o'ldirilgan, ag'darilgan.
Barxurdor - foydalanuvchi, baxravar, baxtli.
Barjasta - eng yaxshi, ko'zga ko'rinib turgan,
Baxshoyish - berish, bag'ishlash, hadya qilish.
Baqo - doimiylik, mangulik.
Begirona - cheksiz, tunganmas.
Benavo - kimsasiz, yordamsiz.
Bexurdu-xob - ovqatsiz, uyqusiz.
Besomon - kambag'al, ojiz, yo'qsil.
Bizoat - sarmoya.
Bismillah - Allohning nomi bilan.
Bisyor - ko'p.
Bihamdillah - Allohga maqtovlar.
Bob - eshik.
Bol - qanot.
Bolo - yuqori.
Bolu-par - qanot va quyruq.
Bolin - yostiq, ko'rpa.
Bunyod etmoq - asosini qurmoq, yuzaga keltirmoq.
Burk - tyaning junidan qilingan kiyim. Daryo va yulduz ismi.

V

Vazih - aniq, ochiq, toza; kasallik nomi.
Vafobob - vafoga munosib
Vasl - yetishish; qovishish, birlashish.
Voze' - asos soluvchi, paranjisiz ayol.
Vola - hayron, shoshib qolgan.
Voqif - xabardor.
Vubol - uvol.

G

Gavharfishon - gavhar to'kilib turgan.
Gardish - aylanish, do'nish.
Gardun - osmon.
Gardankash - bo'ysunmovchi, itoat etmovchi.
Garon - og'ir; katta, zo'r.
Gisu - xotin-qizlarning o'rilgan sochi.
Giyru-dor - olish, tutish; podsholik qilish ma'nosida.
Girdibod - quyun, shamolning aylanishi.
Giribongir - ayblovchi.
Girih - tugun, terish, chigallik.
Gila - nihoyat, yig'i, oh-voh, ta'na, hayfsan.
Giryon - yig'lagan, yosh to'kkan.
Guvora - o'ng'ay hal qiluvchi, yoqimli, rozilik.
Guzargoh - o'tish joyi.
Guljabin - gul peshonali.
Gulandom - gulbadan.
Gulro' - gul yuzli.
Gulfom - gul rang.
Gumroh - yo'lini yo'qotgan, to'g'ri yo'ldan chiqqan, yo'ldan ozgan, adashgan.
Go'sha - burchak.
Guftigo' - gap-so'z, tortishuv, suhbat.
Guftor - gap-so'z, suhbat.

D

Dabiriston - maktab.
Dast - qo'l.
Dastor - salla.
Dayri foniy - "bevafo dunyo", o'tkinchi dunyo.
Dilsiton - dilbar, ko'ngilni oluvchi.
Dilovez - ko'ngilni quvontiradigan, yoqimli, hidli, xushbo'y.
Diloro - sevimli, mahbub.
Diyda - ko'z.
Dilovar - mard, botir, qahramon, jasur.
Dilkusho - xursand qiluvchi, quvontiruvchi.
Dovar - podsho, hokim.
Dodrasi - haqqoniy, adolatli.
Domon - etak.
Durd - quyqum, quyqa.
Durdamoq - may quyqasini ichuvchi, mayga berilgan ma'nosida.
Durfishon - dur sochuvchi, yaltiroq, ravshan.
Duto - bukilgan, egilgan.
Dushvor - og'ir, mushkul, qiyin.

Z

Zarq - ikki yuzlamalik; aldash, soxtalik, hiyla.
Zamzam - Makkadagi buloqning ismi.
Zanax - iyak, tana ma'nosida ham keladi.
Za'f - ojizlik, quvvatsizlik.
Zebu-far - yasan-tusan.
Zimra - jamiyat, guruh.
Zinnor - but.
Zol - kekxa. qari kampir; hiylagar.
Zohid - dunyo ishlaridan havasi qaytib, ibodat bilan mashg'ul kishi, so'fiy.
Zarrot - "zarra"ning ko'pligi; atomlar, qismlar.
Zuhd - harom ishlardan saqlanish, so'fiylik,

I

Ikrom - hurmat.
Iltizom - zaruriy, maqsadga muvofiqlik; tirishish.
Ilk - qo'l.
Imdod - yordam.
Insho - asar, yozma narsa.
Intixob - saylov, tanlash.
Inqilob - o'zgarish.
Irshod - rahbarlik, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchilik.
Istisno - tortinish, nozlanish.
Itob qilmoq - ta'na qilmoq, ta'zir bermoq.
Iqomat etmoq - yashamoq, turmoq.
Iqtido - bir narsaga ergashish, taqlid qilish.
Iqtidor - qudrat, kuch, krbiliyat.
Irsol - yuborish, jo'natish, yo'llash.
Iyer - havo, atmosfera.
Iyd - hayit, bayram.
Ixtisob - tegishli bo'lish.

K

Kavkab - yulduz.
Kavokib - "kavkab"ning ko'pligi - yulduzlar.
Kamand - ip, arqon, bog', tuzoq.
Ka'ba - Makkadagi muqaddas joy.
Ku'ba - qizlik, qiz bolalik.
Kahkashon - somon yo'li, galaktika.
Kibriyo - buyuklik, kattalik, ulug'vorlik; kuch, qudrat, ustunlik.
Kiynaparvar - dushmanlik ko'zi bilap qarovchi, kiynali, yomon niyatli.
Kishtzor - ekinzor.
Kom - maqsad, xohish, tilak.
Komyob - maqsadga erishgan, niyatiga yetgan.
Kofi - yetarli miqdorda.
Kudurat - xafalik, qayg'u.
Kulkul - behuda so'z, tekshirish. Juda nordon limon.
Kulola - sochlar, kokillar, guldasta.

Ko'ka - boyqush, tutingan og'ayni.
Ko'hkan - Farhodnng laqabi, tog' qazuvchi ma'nosida

L

Lavs - kuch, qudrat; ifloslik; sustlik.
Lavas - pastkashlik, tubanlik.
Lavh - quyosh yoki yulduzning ko'rinishi; yarqirash, nur sochish.
La'l - yoqutga o'xshash qizil rangli, qimmat baho tosh; majozan qizil may va dilbarning labi.
La'l shakarbor - shakar lab ma'nosida.
Lojiram - shubhasiz; noiloj.

M

Mavzun - vaznga solingan, o'lchangan, chiroyli.
Mavlo - sohib, molik, janob.
Ma'bad - ibodat etiladigan o'rin.
Ma'vo - jon, maskan, panoh, o'rin.
Maddioh - oh chekish, uzoq azoblanish; davomli oh chekish ma'iosida.
Madoro - yuzaki do'stlik
Mazhab - yurish, vosita, diniy fikr, qoida, tartib.
Malih - go'zal, yoqimli, pozik, kelishgan.
Manzar - ko'rinish, yuz, yuz ifodasi.
Manzur - gullagan, go'zal, ko'm-ko'k bo'lgan.
Maoniy - "ma'no"ning ko'pligi, ma'nolar.
Marotib - "martaba"ning ko'pligi - darajalar, unvonlar, vaqtlar.
Marhala - kunning o'tishi, to'xtash joyi.
Mazmum - qo'shilgan, yig'ilgan, birlashtirilgan.
Mardum - xalq, omma, ko'z qorachig'i.
Masdud - yopiq, qulfli.
Masih va masiho - Isoning laqabi, majozan - jonlantiruvchi, jon beruvchi, tiriltiruvchi ma'nosida
Muslax - tayyorlangan.
Muslih - qayta quruvchi, tuzatuvchi.
Mayi nob - toza may, tiniq may.
Maykada - mayxona.
Maymanat - qo'lnpng o'ng tomoni, baxt, gullab yashnash.
Matbax - oshxona.
Mariz - kasallik, xastalik.
Maqdam - qadam joyi.
Maqdur - belgilangan, bo'lishi mumkin bo'lgan, zaruriy, taqdir, imkoniyat.
Maqtal - o'ldirish joyi, dor tagi.
Mag'far - dubulg'a, kaska.
Mah - oy.
Mahaq - kumush va oltinlarga surtib ularning toza va notozaligini ajratadigan tosh.
Mahvash - oy chehra, oy yuzli.
Maxmur - xumor bo'lgan, mayga tashna bo'lgan.
Mahfil - majlis joyi, yig'ilish joyi.
Mashshota - grimchi, bezovchi, kelin va qizlarni yasantiruvchi xotin.
Miftoh - kalit, ochqich.
Miyno - shisha, havo rang oyna: havo.
Monand - o'xshash.
Mochin - Xitoy imperiyasi.
Moh - oy.
Muanbar - atirlangai, xushbo'y hid sochuvchi.
Munavvar - nurli, nur sohib turuvchi, juda ham ravshan.
Muzayyan - yasatilgan, bezatilgan.
Mulavval - charchagap, horigan, tolgan, kasalvand, ojiz, xafa, xafa bo'lgan, g'amgin.
Muntaxab - saylangan, tanlangan.
Munojot - xudoga iltijo, yolvorish.
Munfail - xijolatlik, hayrat.
Munhazim - haydalgan, yengilgan, tor-mor keltirilgan.
Mujallo - mashhur, shuhrat topgan.
Mujgon - kiprik.
Mujda - xat, maktub, quvonchli xabar.
Muloqot - uchrashuv, suhbat, so'zlashish.
Muozalloh - xudodan panoh tilash ma'nosida.
Muqtarin - do'st, ittifoqchi, ergashuvchi.
Musaxxar - kuch bilan qo'lga kiritilgan, zabt etilgan, bo'ysundirilgan.
Mustamand - faqir, baxtsiz, qayg'uli, xafalangan.
Mutrib - muzikant, ashulachi, sevintiruvchi, shodlantiruvchi.

Mufarrih - ko'ngil ochuvchi, shod etuvchi.
Mushkin - hidli, xushbo'y.
Muqarrab - yaqin, yaqin qarindosh, do'st.
Mushkbor - mushk sochuvchi, xushbo'y.
Mushtari - sotib oluvchi, xaridor.
Murg'zor - o'tzor, ko'kalamzor, chaman.
Muxlis - ixlosmand, berilgan.
Muhayyo - mavjud, tayyor, hozirlangan.
Mu'tamad - ishonchli.
Mu'tod - odat, odatlangan.
Mug'tanam - g'animat, o'lja hisoblangan.
Mug'tanim - o'lja oluvchi, paytdan foyda.
Mo'r - chumoli.

N

Navmid - umidsiz.
Navola - nasiba, hissa; osham, luqma.
Nazzora - ko'rinish, qarash, boshqarish, tomoshabin.
Nangu nom - or-nomus.
Nargis - bir turli gul; go'zalning ko'zi.
Naxliston - ko'chatzor, xurmozor.
Nokom - maqsadiga yetmagan, baxtsiz.
Nashiman - o'tiradagan narsa, kursi, majlis, yig'ilish, vatan.
Nashot - yaratish, o'sish, taraqqiyot.
Najot - oila, kelib chiqish, boshlang'ich.
Nix - ip, tola.
Neknom - yaxshilikda nom chiqargan, dongdor, shuhratli.
Nisor - sochish, oyoq ostiga sochish.
Novak - o'q, kamon o'qi.
Noyob - kam topiladigan, kamchil, nodir.
Nun - arab alifbesida "n" harfi.
No'sh - ichish, no'sh qilmoq - ichmoq

O

Obdor - porloq.
Obi hayot - hayot suvi, tirgizuvchi suv (Afsonaga ko'ra, qandaydir bir g'orda chashma bo'lib, kimki uning suvidan ichsa go'yo o'lmay, abadiy yashar emish). Bu suvni obi hayot, obi hayvon, obi baqo, obi zindagoniy, xizri hast, xizr suvi, chashmai hayvon deb ham yuritiladi.
Oyin - odat, rasm, tantana.
Oluda - bulg'angan, ifloslangai, iflos.
Oshufta - mubtalo, oshiq, parishon.
Oshiftahol - achinarli holatda, g'amli kayfiyat.
Oshom - ichuvchi; may oshom - may ichuvchi, mayxo'r.
Oshub - fitna, to'polon, g'avg'o.
Omoda - tayyor, hozir.
Oraz - yuz, bet.
Oroyish - bezak, bezash, ziyinat.
Og'oz - boshlanish, ibtido.
Ozurda - xafa, xafalangan, ranjigan.
Ozig' - foyda, paf.
Osiy - gupohkor, bo'ysunmovchi, itoatsiz.
Osor - "asar"ning ko'pligi - ta'sirlar, izlar.
Osuda - tinch, xotirjam, ozod.

P

Padidor - ochiq, ravshai ko'rinish turgan.
Pariro' - pariga o'xshash go'zal.
Partav - shu'la, nur.
Payvasta - birlashgan, tutashgan; yaqin, tutash.
Payk - xabarchi, chopar.
Paymonishkan - va'dasini buzuvchi, ahdini buzuvchi
Pinhon - yashirin, maxfiy, sir.
Pirohan - ko'ylak.
Piri mug'on - mayxonachi.
Po va poy - oyoq.
Pokdoman - aqlli, dono, toza, pokiza, pok.
Punba - paxta.
Purtob - o'q, sakrash, yaltirash, nurlanish.

R

Raiyat - xalq, tobelar, dehqon.
Rastaxez - qiyomat, maxshar kunn, to'polon, qiy-chuv.
Rahnamo - yo'l boshchi, rahbar.
Reza - qirqindi, mayda.
Rishu-burut - soqol-mo'ylov.
Rizvon - jannat, bog', bo'ston.
Rikob - uzangi, ot.
Rind - may ichuvchi, oshiq.
Rishta - ip.
Rifat - yuksaklik, buyuk martaba.
Riyo - ikkiyuzlamalik, munofiqlik.
Riyoz - bog'lar, o'tzorlar.
Rusiyoh - yuzi qora.
Ruhafzo - ko'ngilni oluvchi, o'ziga ko'ngilni tortuvchi.
Rutubat - namlik, zaxkashlpk.
Ro'zu-shab - kecha-kunduz.

S

Sabz - ko'm-ko'k, yangi, toza, ko'karayotgan narsa.
Sabih - go'zal husnli, oq yuz.
Sabu - piyola, qadah.
Sabir - sabr etuvchi, chidamli, bardosh etuvchi.
Savdo - ortiq darajada bershshsh, sevgi va muhabbat og'irchiligi.
Sad - 100, to'siq, g'ov.
Samad - xo'jayin, janob, boshliq, rahbar.
Samur - qimmatli hayvon terisi.
Sanjob - qush ismi.
Sanad - hujjat, asos, tayanch.
Sargashta - sarson, hayron, boshi aylangan.
Sarafroz - yuksak, baland, baxtga erishgan.
Sarmanzil - mehmonxona, to'xtash joyi.
Sarshor - to'la, to'lib toshgan, sug'orilgan, mast.
Sarxush - sarmast, mast.
Salosil - zanjirlar.
Sulosil - tomoqdan o'tuvchi toza suv, toza vino.
Salotin - sultonlar, podshohlar.
Sayd - ov.
Sayyod - ovchi, mirishkor.
Sarih - ochiq, aniq, ravshan.
Sarsar - ahmoq, aqlsiz, tentaklik.
Sahbo - qizil may.
Sahih - to'la, mukammal, sog'lom, haqqoniy, haqiqiy asl.
Sahob - bulut.
Saxovat - saxiylik.
Sahiyim - kasal, nosog', kuchsiz.
Sirishk - kuz yoshi
Sitam - jabr, jafo, haqsizlik.
Sitamkor - zulm va haqsizlik qiluvchi, sitamgar.
Sinon - nayza, uchli nayza.
Sihiy - to'g'ri, tik; sarv sihiy bo'yli - to'g'ri va chiroyli bo'yli.
Sihi qad - qomati kelishgan, sarv qomat.
Siyah (siyoh) - qora, baxtsiz.
Sobit - barqaror, tebranmas; isbotlangan.
Sokin - bir yerda turuvchi, harakatsiz.
Soqiy - may quyuvchi, go'zal, kosagul.
Sog'ar - may qadahi.
Spehr - osmon, taqdir, dunyo.
Suguvor - yig'lash, shikoyat qilish, g'amgin, xafa.
Sud - foyda, naf.
Sukun - tinch, tinchlik, harakatsiz tanaffus, doimiylik.
Sumanso - go'zal.
Suluk - yo'l; bir yo'lni qabul etish, chunonchi, tariqat yo'liga kirib, ibodat bilan mashg'ul bo'lish.
Surayyo - hulkar yulduzi.
Surox - qichqiriq.
Suruk - gala, to'da, guruh.
Sunbul - o'rilgan sochga o'xshash, ingichka va uzun bo'lib o'sadigan xushbo'y o'simlik.

Sun' - ustalik, hunar.
Savmaa - ibodatxona.

T

Taboh - buzilgan, aynigan, xarob.
Tavahhum - xayol, faraz, tasavvur etish, shubha; xavfsirash, qo'rqish.
Tavfiq - muvofiq kelish, yordam, ko'mak.
Takallum - suhbatlashuv, suhbat, so'zlash.
Takyagoh - tayanadigan yer, so'fiylar ibodat qiladigan va rasm-rusumlarni o'tkaziladigan joy.
Tal'at - yuz, bet, chehra, ko'rinish; go'zallik.
Talx - achchiq, taxir.
Talxkom - ishi o'ngidan kelmagan, baxtsiz, qayg'uli.
Taokallo - zuhur etish, ravshan bir suratda ko'rinish; shu'la, jilva.
Tajammul - go'zallik, savlat, bezaklik.
Tamanno - istak, orzu, talab, duo, o'tinish.
Tama' - ochko'zlik, to'yimaslik.
Tarab - shodlik, sevinch, xursandlik.
Tariq - yo'l, uslub, qoida, odat.
Tarror - tovlamachi, o'g'ri, cho'ntakkesar, aldoqchi.
Tarovat - tozalik, yangilik.
Tag'allub - bo'ysundirish, bosib olish, aldash, qalbakilik, soxtalik.
Taxtassaro - yerning tagi.
Tahammul - chidam, toqat.
Taharruk - harakat qilish, harakatlanishlik.
Tahayyur - hayratda qolish.
Ta'mir - tuzatish.
Tiyradil - dili xira.
Tifl - bola, go'dak.
Tilovat - o'qish (qur'onni), fikr yuritish.
Tiyra - xira, qora, qorong'y.
Tobon - porloq, yorug' sochib turuvchi, munavvar.
Tobu-tab - kuch-quvvat, qodirlik.
Tug'ro - podshohning nomi ham ko'rsatilgan maxsus bir belgi bo'lib, buyruq, farmon, qaror kabilarning tepasiga tushirilgan bo'ladi.
Tundbod - qattiq shamol.
Turra - kokil
Tul - urush, kurash, janjal, tortishish.

U

Uzor - yuz.
Unnob - chilonjiyda.
Ushshoq - oshiqalar.
Uyruymoq - aylanmoq, o'girilmoq; qayg'urmoq.
Unon - faryod, oh-voh.
Uqov - yulduz ismi.

F

Fath - ochish, qo'lga olish, tortib olish,
Firdavs - bog', jannat.
Favt - yo'qotish, o'lim.
Fano - yo'qlik.
Farz - buyruq, topshiriq, majburiyat, majburiy bo'lgan ish.
Farrux - chiroyli, go'zal, baxtli.
Farzona - ongli.
Farxunda - muborak, qutluq, baxtiyor.
Fasohat - ustalik bilan gapirish, chiroyli gapirish, to'g'ri va ochiq qilib gapirish.
Fayzosor - lutf-karamli; bahrali.
Foyizul-anvor - charog'on, nurlantiruvchi.
Forug'bol - joni tinch, xotirjam.

X

Xayl - to'da, odouon, guruh.
Kam - egri, egilgan.
Xat - endigina chiqa boshlagap mo'ylov.
Xirad - aql, zehn, fikr, farosat.
Xiromon - xirom bilan (noz bilap) yuruvchi, mahbub.
Xok - tuproq, yer; mamlakat.
Xokistar - kul.

Xun - qon, o'ldirish. o'lim.
Xurshid - kun, quyosh.
Xo'tan - Sharqiy Turkistonning bir viloyati.
Shahboz - lochin.
Shahvor - shahona, shohlarga maxsus.
Shahid - chiroyli, go'zal. Muqaddas jangda halok bo'lgan shaxs.
Shahodat - guvohlik.
Shahna - qo'riqchi, posbon.
Shikor - ov, ovlash.
Shitob - shoshilinch, shoshilish.
Shodob - ho'l, nam, zax.
Shoyista - loyiq, munosib, shoyon, sazovor.
Shona - taroq.
Shohid - guvoh, dalil.
Shumora - son, adad, sanoq.
Shuhra - shuhrat, mashhur bo'lish.
Sho'ru-par - shovqin-suron, janjal, to'polon.

Ch

Chaspon - yaroqli, to'g'ri keladigan, yarashgan, chiroyli.
Chirik - bu yerda qo'shin ma'nosida.
Chobuk - tez, tez yurar.
Chokar - xizmatchi.
Chobuksuvor - uloqchi, chavandoz.
Chorko'l - to'rtko'l.
Cho'g'z - boyo'g'li, boyqush.
Cho'x - ko'p.

G'

G'addor - xoin, qattiq qo'l.
G'ulom - o'g'il bola, yigitcha xodim, qul, malay.
G'izol - kiyik.
Yovmulhisob - qiyomat.

Sh

Shakarbor - shirin so'zli.
Shamoyil - shakl, surat, ko'rinish.
Shamshod - baland, to'g'ri daraxt (jononning kelishgan qomatiga tashbih etiladi).
Shash qator - (olti qator), tizilgan, ketma-ket (ko'z yoshi haqida).
Sharar - zarar yetkazish, haqorat qilish.
Shaf'i - yoqlovchi, himoya etuvchi, vositachi.

Ya

Ya'juj - diniy afsonaga ko'ra, go'yo qiyomat payti kelganda "Ya'juj-Ma'juj" (yalmog'iz) nomli qisqa bo'yli odamlar paydo bo'lib, hamma yoqni xarob etar emish.
Yag'mo - talon, g'orat; birovning narsalarini tortib olish, o'g'irlik.
Yasrib - Madina shaharining qadimgi nomi.

H

Hadis - 1) yangi, ilgari bo'lmagan. 2) yangilik; 3) so'z, gap; 4) Muhammadning va undan so'ng o'tgan imomlarning aytganlari va odatlari haqida naql va rivoyatlar.
Hovodis - "hodisa"ning ko'pligi - hodisalar.
Hajr - ayriliq, firoq.
Hadaf - qora, nishon, mo'ljal, qasd etilgan nuqta.
Hazor - ming; sad hazor - yuz ming.
Hasud - hasadchi, ko'ra olmovchi.
Hijob - parda.
Hashmat - savlat, dabdaba, ulug'vorlik.
Hashr - yig'in, yig'ilish.
Harim - harom.
Hayvonsuyi - obi hayot.
Hijrat - ko'chish, ko'chib ketish
Hilol - yangi oy, uch kunlik oy.
Huvaydo - zohid, ko'rinib turgan, ravshan, oshkor.
Hudhud - po'pishak.
Hukamo - "hakim"ning ko'pligi; olim, faylasuf, doktor.
Humoyun - muborak, qutli, baxtli.

This is not registered version of TotalDocConverter
Hunio qol